

AYRIM DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA JINOYAT ISHINI SUDGA YUBORISHDA PROKUROR VAKOLATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Dauletmuratov Timur Dauletmuratovich

O'zbekiston Respublikasi IIVga qarashli Nukus "Temurbeklar maktabi" litseyi
huquqshunoslik fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14560526>

Annotasiya: Ushbu maqolada jinoyat ishini sudga yuborishda prokuror vakolatining ayrim davlatlar qonunchiligi misolida qiyosiy taxlili berilgan. Jumladan Fransiya, Moldava va Ukraina jinoyat protsessi qonunchiligi o'rganilgan.


Kalit so'zlar: prokuratura, jinoyat ishi, assambleya, sud nazorati, tergov, ayblov xulosasi

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanishi, tarixiy tendensiyalari bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularni yagona markazlashgan prokuratura idorasiga tegishli bo'lganligi tufayli, qonunlarning tuzilishi, prokuratura idorasining davlat organlari o'rtasida tutgan o'rni va ahamiyati bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun, ayrim xorijiy va MDH davlatlar qonunchiligida jinoyat ishini sudga yuborishda prokuror vakolati qaydarajada ekanligini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Fransiya Respublikasi. Jinoyat protsessual kodeksining (22.12.2021 yilda qabul qilingan) 394-moddasida jinoyat ishini sudga yuborishda quydagi prokuror vakolatlari belgilangan[1];

Prokuror, agar manfaatdor shaxs o'z advokati ishtirokida to'g'ridan-to'g'ri voz kechmagan bo'lsa, kamida o'n kundan kam bo'lmagan muddatda, shuningdek olti oydan ko'p bo'lmagan muddatda sudga taklif qilingan shaxsni taklif qilishi mumkin. U unga qarshi ochilgan faktlar, shuningdek sud majlisining joyi, sanasi va vaqti haqida xabar beradi. Shuningdek, u sudlanuvchiga o'z daromadlarini tasdiqlovchi hujjatlar, shuningdek, soliq yoki soliqqa oid bo'lmagan bildirishnomalar bilan sud majlisida ishtirok etishi kerakligini ma'lum qiladi. Hisobotda ko'rsatilgan, nusxasi darhol sudlanuvchiga beriladigan ushbu bildirishnoma har kimni chaqirishga arziydi.

✓ Saylangan advokat yoki advokatlar kollegiyasi raisi har qanday vosita bilan va kechiktirmasdan sud majlisining sanasi va vaqti to'g'risida xabardor qilinadi; Ushbu fikr bayonnomada qayd etiladi. Advokat yoki unga advokat yordamisiz yuborilgan shaxs istalgan vaqtda fayl bilan tanishishi mumkin.




✓ Agar davlat ayblovchisi sudlanuvchini sudga kelguniga qadar sud nazoratining bir yoki bir nechta majburiyatlarini yuklash yoki elektron kuzatuv ostida uy qamog'iga o'tkazish zarur deb hisoblasa, uni joyida ozodlikdan mahrum qilish va qamoqqa olish bo'yicha sudya, ajrim, sudyaga olib keladi. kotib yordamida palatalarda. Ushbu sudya sudlanuvchining o'ziga ayblanayotgan faktlar bo'yicha sukut saqlash huquqi to'g'risida oldindan ma'lum qilinganligini, uning advokati xabardor qilingan va o'z mulohazalarida tinglanganidan so'ng, agar u iltimos qilsa, ushbu choralardan birini e'lon qilishi mumkin. [138,139](#), [142-5](#) va [142-6](#)-moddalarida nazarda tutilgan usullar bo'yicha.. Ushbu qaror sudlanuvchiga og'zaki ravishda xabar qilinadi va bayonnomada ko'rsatiladi, uning nusxasi darhol unga beriladi. [Sud nazorati ostidagi yoki elektron nazorat ostida uy qamog'ida o'tkazilgan sudlanuvchi o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlagan taqdirda, 141-2](#) - moddaning ikkinchi qismi, shuningdek, [141-4-moddaning](#) qoidalari qo'llanilad; ushbu moddada tergov sudyasiga yuklangan vakolatlar keyinchalik prokuror tomonidan amalga oshiriladi[2, 184-b].

Moldova Respublikasi. Maldova Respublikasida prokuratura organlari faoliyatini "Prokuratura to'g'risida" gi Qonuni 4-moddasida belgilangan unga ko'ra "Prokuratura faoliyati Maldova Respublikasi Konstitutsiyasi, Prokuratura to'g'risidagi qonun, Maldova Respublikasi qabul qilgan xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi". Maldovada prokuror o'z faoliyatini qonuniylik prinsipidan kelib chiqib olib boradi, adolatlik, hisobdorlik, halollik va qonuniy majburiyatlarni bajarishda protsessual mustaqillik prinsiplari asosida olib borishadi. Ushbu qonunning 7- moddasida prokuratura organlarining tizimi belgilangan.

Maldova Respublikasi Bosh prokuratura, Maxsus prokuratura, hududiy prokuratura yagona prokuratura tizimi; Bosh prokuratura taklifi bilan Maldova Parlament, Prokuratura Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangan bir necha prokurorlardan iborat prokuratura organlari. Qonunning 11-moddasida Maldova bosh prokurori har yili 31-martga qadar Maldova Parlamentiga prokuratura organlari faoliyati yuzasidan har yili hisobot taqdim etadi. Bu hisobot parlament pleniumida eshitiladi va joylardagi prokuratura organlarining rasmiy veb saytida chop etiladi.

Shuningdek, mazkur qonunning IV-bobda prokuratura organlarining huquq va majburiyatlari ishlar ro'yxati berilgan bo'lib, ushbu ro'yxat prokuratura Oliy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.




Shuningdek, Maldova Respublikasi prokuratura to'g'risida qonunda Bosh prokuror lavozimiga aniq talablar asosiy qonunda belgilab berilgan, shuningdek, hududiy, maxsus prokuroriga ham alohida malaka talablari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, ushbu qonunda prokurorlarni lavozimga tayinlashda shaffof saylov tizimi mavjud. Mazkur qonunning 19-moddasida prokuror va bosh prokuror lavozimiga ariza beruvchilar uchun qo'yilgan talablar yoritilgan. Darhaqiqat, har bir prokuratura tizimiga alohida talablar mavjud. Saylanadigan yoki tayinlanadigan prokurorlar uchun ham alohida kriteriyalar belgilab berilgan. Umuman olgan, prokuratura organlari xodimlarini ishga qabul qilish tartibi va ularning huquq va majburiyatlari mazkur qonunda to'liq o'z aksini topgan.

Bu esa Maldova prokuraturasida ochiqlik yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Mazkur qonunning V bo'limga prokurorlarni saylash va tayinlash tartibi belgilangan. O'ziga xos xususiyatlardan biri shuki, prokuratura ustidan nazorat qiluvchi Prokurorlar assambleyasi, Prokurorlar oliy Kengashi, Prokurorlar kollegiyasi mavjud. Prokurorlar kengashi prokurorlarni saylash, tayinlash, intizomiy jazo qo'llash vazifalarini bajaradi. Prokurorlar oliy kengashi mustaqil tarmog'i bo'lib, prokuratura organlarini ish faoliyatini mustaqil tashkil etish shuningdek, prokurorlarning xolisligi va mustaqilligi kafolati prokurorlar ustidan umumiy nazorat olib boradi. Ushbu kengash 12 kishidan iborat bo'ladi va uni Kengash ichidan saylangan Prezident boshqaradi. Prokuratura Assambleyasi bu bir yilda bir marta chaqiriladi lekin, jamaot hayotida muhim o'zgarishlar bo'lsa assambleya a'zolarining uchdan bir qismi rozi bo'lsa, muddatidan olin ham chaqiriladi. Asosiy vazifasi esa yil davomida Prokuratura Oliy Kengashi tomonidan olib borilgan ishlar va prokurorlar hisobotlari tinglanib tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, Maldova prokuraturasi to'la mustaqil bo'lsada, prokuratura ustidan yetarli darajada nazorat o'rnatilgan jumladan, "Prokuratura to'g'risida" gi qonunda prokuratura organlari ikki xil usulda baholanish belgilangan. Unga ko'ra;

Prokurorlar Oliy Kengashiga bo'ysinuvchi Baholash kengashi tomonidan prokurorlarning bilim darajasi, mahoratlari, ish olib borish ko'nikmalari, ish faoliyati tegishli indikatorlar bilan baholab boriladi. Birinchi baholash usuli "periodically assessment" ya'ni davriy baholashdir. Bu usul har 4-yilda bir marta baholanadi, biroq birinchi marta tayinlangan prokurorlar esa har 2 yilda bir marta baholanadi. Ikkinchi baholash usuli "extraordinary assessment" ya'ni



favqulodda baholash usulidir. Bunda uch xil indikator muhim rol o' naydi. Ma'lum bir talab yoki ehtiyoj bilan, biroq 1 yilda kamida bir marta;

- Hududdagi bosh prokuror bilan nizoli halatlar mavjud bo'lsa;
- Yetarli malaka ega bo'lmay qolgan prokurorlar mavjud bo'lsa;

Baholash kengashi tomonidan indikatorlar o'rganib bo'lingach, Prokuratura inpeksiyasiga hisobot beriladi. Baholash natijalariga ko'ra yetarli baho ololmagan prokurorlar intizomiy javobgarlik yoki lavozimidan ozod etiladi. Shuningdek, prokurorlarni baholari rasmiy veb saytlarda e'lon qilinadi. Moldova Respublikasi prokuratura organlarini o'rganishlar davomida shu aniq bo'ldiki, prokuratura to'liq mustaqil, biroq prokuratura ustidan yetarli darajada nazorat o'rantiqan.

Jinoyat protsessual kodeksining(14.03.2003 yilda qabul qilingan) 297-moddasida jinoyat ishini sudga yuborishda quydagi prokuror vakolatlari belgilangan[3];


- ✓ Ish ayblov xulosasini tuzgan prokuror tomonidan sudga yuboriladi.
- ✓ Agar ayblanuvchi ish materiallari bilan tanishish va ayblov xulosasini olish uchun kelishdan bosh tortsa, prokuror ishni ushbu protsessual harakatlarni amalga oshirmagan holda, lekin ishning rad etilganligini tasdiqlovchi dalillarni ilova qilingan holda sudga yuboradi. ayblanuvchi, agar ayblanuvchi yashiringan bo'lsa, va agar ishni ayblanuvchining yo'qligida ko'rish mumkin bo'lsa, uni qidirish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar.

- ✓ Agar ayblov 282.1-moddaga muvofiq ish yuritish uchun farmoyish bilan qo'zg'atilgan bo'lsa va ayblanuvchi mamlakatga qaytmagan bo'lsa yoki tergov sudyasi ayblanuvchining yo'qligida jinoiy ta'qibni tugatishga ruxsat bergan bo'lsa, moddaga muvofiq. 291.1-moddaga binoan, jinoyat ishining materiallari himoyachiga topshiriladi, unga ayblov xulosasining nusxasi topshiriladi.

- ✓ 282.1-moddada nazarda tutilgan holatda, ish faqat chet davlat tomonidan ish yuritishni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriq bajarilgandan keyin sudga yuboriladi.

- ✓ 2-bandda nazarda tutilgan holatda ayblov xulosasining nusxasi ayblanuvchining himoyachisiga va uning qonuniy vakiliga topshirilishi kerak, ular bilan tanishish uchun ish materiallari ham taqdim etiladi.

- ✓ Ish sudga yuborilganidan keyin berilgan barcha arizalar, shikoyatlar va iltimoslar ishni ko'rayotgan sud tomonidan hal qilinadi.



✓ Ayblanuvchi dastlabki qamoqqa yoki uy qamog'iga olingan bo'lsa, prokuror qamoqqa olishning belgilangan muddati tugashiga kamida 10 kun qolganda ishni sudga yuboradi.

Ukraina Respublikasi. MDH davlatlari orasida prokuratura organlari hisobdorligi umuman, prokuratura organlari faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari anchagina yaxshi yo'lga qo'ygan davlatlar Ukraina va Moldova respublikalaridir. Misol uchun, Ukraina Oliy Radasi tomonidan 1996 yil qabul qilinib, 2004 -yil 8-dekabrda qayta qabul qilingan Ukraina Konstitutsiyasi VII-bo'lim (Prokuratura), 121-123-moddalari prokuraturaning konstitutsiyaviy huquqiy maqomi berilgan bo'lib, Konstitutsiyaning 121-moddasida ko'ra, Ukraina prokuraturasi yagona tizimni tashkil etilgan, unga quyidagilar yuklatilgan.

Jumladan, qonunda belgilangan hollarda sudda fuqaro yoki davlat manfaatlarini ifodalash, tezkor-qidiruv, surishtiruv, dastlabki tergov faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish, jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini ijro etishda, shuningdek fuqarolarning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog'liq majburlov choralarini qo'llashda qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish, inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishini, ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ularning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan ushbu masalalar bo'yicha qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish. Shunindek, Konstitutsiyaning 122-moddasida Oliy Rada Bosh prokurorga ishonchsizlik votumini berish vakolati belgilangan. Darhaqiqat, 2014-yil 10-oktabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida" qonuniga, 2019 -yil 8-iyulda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Mazkur qonuning 3-moddasida prokuratura organlarining asosiy prinsiplari belgilangan. Jumladan, prokuratura faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi, qonun ustuvorligi, inson va uning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmat, daxlsizligi va xavfsizligi eng oliy ijtimoiy qadriyat sifatida tan olinishi, qonuniylik, adolatlilik, haqqoniylik va xolislik, hududiylik, aybsizlik prezumpsiyasi, prokurorning mustaqilligi prokurorga o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida qarorlar qabul qilishda unga noqonuniy siyosiy, moddiy yoki boshqa ta'sir ko'rsatish kafolatlarining mavjudligini nazarda tutadi, prokuraturaning siyosiy betarafligi, prokuraturaning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati faoliyatiga noqonuniy aralashuviga yo'l qo'yilmasligi, sudyalarning mustaqilligini hurmat qilish, prokuror lavozimini ochiq va raqobatbardosh egallash, prokuratura faoliyatining shaffofligi, agar

qonunchilikda taqiqlar bo'lmasa, ma'lumotlardan erkin va ochiq foydalanish, kasbiy axloq va xulqatvor talablariga qat'iy rioya qilish.

Shuningdek, 6-moddasida prokuratura faoliyati to'g'risida hisobot berish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra:

➤ Prokuratura organlari o'z faoliyati to'g'risida yiliga kamida ikki marta ommaviy axborot vositalari orqali aholini xabardor qiladilar.

➤ Bosh prokuror shaxsan yiliga kamida bir marta umumiy statistik va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish orqali Ukraina Oliy Radasining yalpi majlisida prokuratura organlari faoliyati to'g'risida hisobot beradi.

➤ Viloyat va mahalliy prokuratura organlari rahbarlari ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etiladigan tegishli Kengashning ochiq yalpi majlisida yiliga kamida ikki marta tegishli ma'muriy hududiy birlik aholisini o'z faoliyati yakunlarini umumlashtirilgan statistik va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish orqali ushbu hudud to'g'risida xabardor qiladilar.

➤ Prokuratura faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida hamda prokuraturaning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

➤ Prokuratura organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Ukraina prokuraturasini tashkil etish va faoliyati to'g'risida ular tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, prokuratura organlarining hisobdorlik faoliyati tashkiliy huquqiy asosiy qonun bilan samarali tartibga solingan. Bundan tashqari, Ukraina prokuraturasi tizimi to'xtalib o'tiladigan bo'lsa:

- 1) Ukraina Bosh prokuraturasi;
- 2) viloyat prokuraturalari;
- 3) mahalliy prokuratura organlari;
- 4) harbiy prokuratura;
- 5) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuraturasidan iboratdir.

Shuningdek, Bosh prokurorning huquqiy mazmundagi buyruqlari Ukraina Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak va yuridik hujjatlarning yagona davlat reestriga kiritilgan. "Prokuratura to'g'risida" qonunining VIII bobi prokuratura organlarining o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning faoliyati deb nomlangan. Mazkur qonunning 67- moddasida "Umumukrainiya Prokurorlar Konferensiya" prokurorlarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining eng oliy organi hisoblanishi belgilangan.

Umumukrainiya prokurorlar Konferensiya:



1) Ukraina Prokuraturasi Kengashining prokuraturaning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalarini bajarishi, prokuratura faoliyatini moliyalashtirish va tashkiliy ta'minlash holati to'g'risidagi hisobotini eshitadi;

2) Ukraina Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq Oliy Kengashi a'zolarini tayinladi va ularning vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi ;

3) Ukraina Prokurorlari Kengashi, prokurorlarning malaka va intizom komissiyasi a'zolarini tayinlaydi;

4) Prokurorlarning kasbiy etikasi va xulq-atvori kodeksini va Ukraina Prokurorlari kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi;

5) Prokurorlarning malaka va intizomiy komissiyasi ish tartibi to'g'risidagi nizomlar qabul qiladi;

6) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga va ularning mansabdor shaxslariga prokuratura faoliyatiga doir masalalarni hal etish yuzasidan takliflar bilan murojaat qiladi;

7) prokurorning o'zini o'zi boshqarishning boshqa masalalarini ko'rib chiqadi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8) Prokurorlarning Butun Ukraina konferensiyasi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Ukraina Prokurorlari Kengashi va har qanday prokurorlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi.

Prokuratura o'zini-o'zi boshqarish ikkinchi organi **Prokurorlar Kengashi** hisoblanadi. Ukraina Prokurorlari Kengashi Prokurorlarning Umumukraina Konferensiyasi qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi, shuningdek, prokurorlarning Umumukraina Konferensiyasini chaqirish va o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ukraina Prokurorlari Kengashining vakolatlari va ish tartibi ushbu Qonun va Ukraina Prokurorlari Kengashi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

Aytish joizki, Ukraina Respublikasi Prokuratura tizimida prokurorlar ustidan nazorat va ularning faoliyatida ochiqlik va shaffoflik samarali yo'lga qo'yilgan.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida jinoyat ishini sudga yuborishda prokuror vakolatlari qiyosiy tahlil qilinishi bizning qonunchilgimizda ancha boshliqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fransiya Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi (22.12.2021 yilda qabul qilingan)

https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071154/

2. Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik.- Toshkent: TDYU, 2019. 175-bet.



3. Moldova Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi (14.03.2003 yilda qabul qilingan)
https://stoptorture.humanrightsembassy.org/index.php?option=com_content&view=article&id=157:codul-de-procedur-penal-al-republicii-moldova-partea-general&catid=76&Itemid=301&lang=ro
4. КРИМІНАЛЬНИЙ ПРОЦЕСУАЛЬНИЙ КОДЕКС УКРАЇНИ (Відомості Верховної Ради України (ВВР), 2013, № 9-10, № 11-12, № 13, ст.88)
<https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/4651-17#Text>

